

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TARBIYA QONUNIYATI VA TAMOYILLARINI O'QITISH USULLARI.

Suyarova Soxiba Po`Latovna

1-sinf o'quvchilarida tarbiya qonuniyatlarini va tamoyillarini o'qitish usullari

Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviv ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlarini qidirib topish, mustaqil o'rghanish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlarini keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit varatadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini baiaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliv hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkvevn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin» FSMU, «Kichik guruhlarda ishslash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash voki mustahkamlash darslarida foydalanilsa iiobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni baiarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishslash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, iiokkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak. Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo`lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi. Bugungi kun o'qituvchidan ilg`or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lif-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O`ylaymizki. u o'quv mashg`ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy vordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarini o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'ulivatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: «Har qarichi muqaddas bo`lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g`urur va iftixon. sadoqat

tuvg'ularini uvg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik», degan fikrlariga javoban la'lim va tarbiya berishning zamonaviv usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o`z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz. Yoshlar tarbiyasi barcha davrlarda ham dolzarb muamolardan biri ekan, ayniqsa bu masalaga mustaqillik yillarida jiddiv e'tibor berib kelinmoqda. Bizga ma'lumki, yosh avlod ma'naviyati shubhasiz ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblangan tarbiyaga bo'lgan e'tibor yurtimizda har qachongidan ham muhim dolzarblik kasb etmoqda. O'quvchi o'quv jarayonining davomi sifatida bevosita tarbiyaviy ishlarda ishtirok etadi. Uning darsda olgan bilimi, dunyoqarashi, qiziqishi, imkoniyatlari tarbiyaviy ishlarda namoyon bo'ladi, mustahkamlanadi. Eng asosiysi o'quvchi tarbiyaviy ishlarda qatnashish jarayonida o`z-o'zini anglaydi, ijodkorligi o'sadi, Olgan bilimlarini amalda qo'llashga o'rganadi, shuningdek, ularda jamoatchilik, uyushqoqlik, hamdardlik kabi ko'nikmalar shakllanadi. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol topib borishida, shubhasiz, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayoni muhimdir. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda, ularning ongiga, shuuriga ta'sir ko'rsatishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar katta ahamiyatga molik, bu ishni muvaffaqiyatli hal qilishda, albatta, o'quvchilardan chuqur bilim, izlanish, fidoyilik talab qilinadi. Eng avvalo o'qituvchilar, jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'tkazish metodikasini chuqur bilishlari juda muhimdir. Biz kurs ishini yoritib berish jarayonida bir qator sinfdan tashqari tadbirlarni amalga oshirdik, unda yangi usul maktabi tarafdarlarining darsliklaridagi axloqiy tarbiyaga doir matnlari asos qilib oldik. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish juda muhim. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ma'naviy va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish lozimligi alohida ta'kidlangan. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilimdon, odob-axloqli, o'z kasbining fidoyisi bo'lishi zarur. O'qituvchi sinfdan tashqari o'tkaziladigan axloqiy mavzudagi suhbatlarga alohida e'tibor berishi kerak. Zero, sinfdan tashqari o'tkaziladigan ishlar jarayoni muhim bo'lib, o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda yetakchi ahamiyatga ega. Bizning kuzatishlarimiz, ilmiy-tajriba ishlarimizning ko'rsatishicha, boshlang'ich sinflarda axloqiy mavzudagi suhbatlar o'tkazishning ahvolini qoniqarli holda deb bo'lmaydi. Bunga asosiy sabablar:

- aksariyat maktablarning boshlang'ich sinflarida sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonida yangi usul maktabi tarafdarlarining merosiga doir axloqiy mavzudagi suhbatlar deyarli o'tkazilmaydi;
- juda kam maktablarda sinfdan tashqari ishlar jarayonida axloqiy mavzudagi suhbatlar o'tkazib turilsada, bunda juda katta xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda.

Xususan: ko'plab o'qituvchilar axloqiy mavzuda suhbatlar o'tkazish metodikasini bilmaydilar, shu sababli ko'zlangan maqsadga erisha olmayaptilar;

-axloqiy mavzudagi suhbatlar har oyda, ba'zan har ikki oyda bir marta nomigagina, yoxud turli xil sabablar bahonasida o'tkaziladigan hollar ko'p uchraydi;

-bunday suhbatlar ko'pincha quruq nasihatbozlikka aylanib ketmoqda va o'quvchilar shuuriga deyarli ta'sir ko'rсata olmayapti;

-bunday suhbatlarda xalqimizning ma'naviy-axloqiy mavzudagi boy pedagogik merosidan juda kam foydalanilayotir;

v) o'qituvchilar uchun axloqiy mavzuda suhbatlar o'tkazish bo'yicha metodik qo'llanma va tavsiyanomalar deyarli yo'q, borlari ham juda eskirib o'z ahamiyatini yo'qotib qolganligini ta'kidlash joiz.

Axloqiy mavzudagi suhbatlar sinfdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda bir qator afzalliklarga ega. Kurs ishimiz maqsadining ko'rsatishicha, bular asosan quyidagilardan iborat: bunday suhbatlar orqali o'qituvchilar o'quvchilar qalbiga yo'l topa oladilar. O'qituvchilar bilan o'quvchilar o'rtasida o'zaro yaqinlik, keyinroq esa hattoki, sirdosh bo'lish hollari uchraydi; boshlang'ich sinf o'qituvchilari har bir o'quvchining individual xususiyatlari, fe'l-atvori, xohish-istik, mayllari, xulqi odobini o'rganishlari. ba'zi hollarda esa xulqida paydo bo`ladigan salbiy holatlarni banarafqilishda axloqiy mavzudagi suhbatlar yetakchi rol o`ynaydi:

-o'qituvchilar uchun bundav suhbatlar o`quvchilarning axloqiv tarbiyasiga ta`sir o`tkazishning muhim shakli bo'lib, shubhasiz o'zining ijobjiy natijasini beradi.

Kurs ishimiz maqsadi va vazifasining ko'rsatishicha axloqiy mavzudagi suhbatlar asosan ikki xil ko`rinishda - yakka va guruh tartibida o`tkazilib bunda boshlang`ich sinf o'qituvchisi quyidagilarga alohida e`tibor bermog`i lozim:

- har bir boshlang`ich sinf o'qituvchisi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan axloqiy mavzudagi suhbat mavzularini o`quv yili boshidayoq tanlab olishi va maktab pedagogik kengashi sho`ba muhokamadan o`tkazib boshlang`ich sinflar (ishlari) bo'yicha direktor o`rnbosari tasdig`idan o`tkazishi;

- sinfdan tashqari o`tkaziladigan axloqiy suhbatlarni qat'i reja aniq maqsad asosida bo`lishi:

- bunday suhbatlar uchun alohida daftar tutilishi va o`tkaziladigan suhbatlar unga tushirib borilishi;

- axloqiy mavzudagi har bir suhbatda ko`rgazmali qurollardan foydalanishi axloqiy tarbiyaga doir asarlardan namunalar keltirilishi;

- axloqiy mavzudagi suhbatlarni ko'proq noana`naviy tarzda o`tish bunda munozarali, qiziqarli erkin bo`lishiga e`tibor berish;

- axloqiy mavzudagi suhbatlarning davom qilish vaqtি aniq bo`lishi kerak;

Bizningcha boshlang`ich sinflarda yakka tartibda 12-1 5 minut, guruh tartibida 25-30 minut bo`lishi lozim.

- har bir boshlang`ich sinf o`qituvchisi suhbatdoshining Yoshi, bilim darajasi, xulq-atvori, odob-axloqi kabilarni alohida e`tiborga olishi;
- odatda axloqiy mavzudagi suhbatlar xohish-istiklarini o'zida ifodalashi, ular uchun bu suhbatlar dolzarb ahamiyat kasb etishini tushuna bilishlari;
- har bir axloqiv suhbat avvalgi mavzuni davomi to'ldiruvchisi bo`lishi, o`zaro aloqador bo`lishi, osondan-qiyingga, oddiydan-murakkabga qoidalarga alohida e`tibor berish kerak.

Boshlang`ich sinflarda o'lkaziladigan axloqiy mavzudagi suhbatlarning shakllari turli xil ko'rinishda bo`lishi mumkin.

- axloqiy mavzudagi kitoblar tavsiyasiga bag`ishlangan suhbatlar;
- o'quvchilarining ijobjiy yoki salbiy xulq-atvori, xatti-harakatlariga bag`ishlangan suhbatlar;
- turli xil tadbir va bayramlarga bag`ishlangan axloqiy mavzudagi suhbatlar;
- buyuk allomalar, qahramonlarning hayoti, faoliyati va fazilatlariga bag`ishlangan suhbatlar.

"Usul" tushunchasi har qanday maqsadga erishish, harakat qilish usuli sifatida belgilanadi. Demak, tarbiya usuli bu tarbiyalashning xatti-harakati demakdir. Tarbiyalashning usullari bu o'qituvchi-tarbiyachi bilan birgalikdagi faoliyatda (aloqada) pedagogik muammolarni hal qilish uchun mакtab o'quvchilarining ongi, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir qilishning o'ziga xos usullari. Tarbiya jarayonining mohiyatini chuqur bilib, uni tashkil etishda tashabbus ko'rsatish, ishbilarmonlik va epchillik, barcha yangi va ilg'or narsalarni amalda samarali qo'llay bilish ta'lim muassasasi o'quvchisi shaxsini rivojlantirish jarayoniga rahbarlik qilish tamoyillaridan biridir. Samarali rahbarlik uslubini ta'lim muassasasi hayoti va faoliyatiga tatbiq etishning namunasi bo'lgan kollegial va yakka rahbarlikning birga qo'shib olib borilishi o'quvchilar taqlidi, ularning tarbiyasiga pedagoglar jamoasi javobgarligini va direktorning shaxsiy javobgarligini ta'minlaydi. Rahbarlikning zarur qonun-qoidalari rejallilik bo'lib, uning yordamida pedagogik ta'sirlar tizimi va tarbiyaviy ishda izchillikka erishiladi. Rejalilik direktorga tarbiyaning barcha masalalarini aniq amalga oshirish istiqbollarini namoyon qiladi. Mazkur ta'limotga asosan ta'lim muassasasidan tashqari ishlarni rejalashtirish va uning amalga oshirilishiga rahbarlik hamda nazoratni uyushtirib borish ta'lim muassasasi ichki boshqaruv tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

1-sinflarga tarbiya darslarini tashkil etishda, o'quvchining yoshiga va psixologiyasiga mos bo'lgan, mavzuga oid turli xil rangdagi ko'rgazmali qurollardan ham foydalanib dars jarayonini tashkil etish mumkin. Dars jarayonini o'qituvchi o`zining kelib chiqib mazmunll tashkil etishi mumkin. Masalan: dars davomida

multimediyalardan foydalanib, didaktik o'yinlar tashkil qilib darsni mazmunli va samarali tashkil etish lozim.

2-sinf o'quvchilarida tarbiya qonuniyatlari va tamoyillarini o'qitish usullari.

Bugun tarbiya kilib bormagan biror soha yo'q, har bir fan, albatta, tarbiya bilan uzviy bog`liq. Ushbu fanga o'quvchini qiziqtirish, rejada berilgan mavzularni to'liq o`zlashtirilishini ta`minlash pedagogning vazifasi sanaladi. Pedagog kutilayotgan natijaga erishish uchun avvalo darsni rejalashtirishi yoki loyihalashtirishi lozim bo`ladi. Darsni loyihalashtirishda quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz. Pedagogik jarayonni loyihalashda:

I . Pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;

2, Natijalarni oldindan ko'ra bilish;

3. Rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi. Bu bosqichda o'qituvchining mustaqil, shu bilan birga o'quvchi bilan hamkorlikda o'quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyati yetakchi o'r'in tutadi. Loyihalar predmet va uning

Darslik yorqin, rangli, illyustratsiyalarga boy va har bir bo'limi o`ziga xos fon, milliy va umuminsoniy xulq, ijtimoiy malakani ifoda etgan rasmlar bilan ta'minlangan. Har bir darslik uchun video, audio, media materiallar jamlashgan disk beriladi. Insonning kelajakda muvaffaqiyatli inson bo'lish eng avvalo to'g'ri maqsad qo'yishga bog`liq. Deyl Karnegi, Brayan Treysi kabi mashhur lektorning ta'lilotiga ko'ra, hayotda o`z oldiga maqsad qo'yish va unga erishishni o'rganish ham aslida bir fan. "Tarbiya" fanining ahamiyatli jihat shuki, u bosqichma-bosqich bolada maqsad qo'yish va unga intilish ko'nikmasini shakllantirib boradi. Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas.

Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqliqdir. Ona tili va adabiyot darslarini o'qitish pedagogdan ijodkorlikni talab qiladi. Avvalo mavzuni tushuntirishdan oldin o'qituvchi uning murakkablik darajasini aniqlaydi, so'ngra ushbu murakkablikni osonlashtiruvchi, o'quvchiga yengillik yaratuvchi metodlarni ishlab chiqishi zarur.

Baliq skeleti texnikasi: Ushbu texnologiya katta muammolarning yechimini topishga qaratilgan. Yuqori qismida muammolar yozilsa, pastki qismida esa ularning yechimiga doir so`zlar yozilib, misollar bilan izohlanadi. Debatlar — bu qarama-qarshi nuqtai-nazarlarning özaro bahsi (to'qnashushi) bo'lib, u öquvchilarni tanqidiy fikrlashga, turli masalalarni örganish va o`zlari haq ekanligiga boshqalarni ishontirishga o'rgatadi.

Debatlar Qadimgi Gretsiyada yaratilganligi haqida nazariy ma'lumot beriladi. Debatlar bu jamoaning hamkorlikdagi faoliyati bo`lib, bunda jamoaning har bir azosi özinинг burch va majburiyatlariga ega bo`ladi, kim g`alabaga erishganini esa debat yakunida jamoalarning argumentlari, faktlari, favqulodda savollar va ularga berilgan

javoblar asosida hakamlar jamoasi yoki öqituvchi belgilab beradi. O`quvchilar bilan debat o`tkazganda 3 ta tamoyilga amal qilish kerak: Debatlar ko`p narsaga örgatadi (Chunki debat o`ttkazishdan maqsad faqat g'alaba qozonish emas, balki asosiy maqsad debatlar yordamida yangi bilimlarni egallashdir). Jarayonga faol ishtirok va vijdonlilik majburiyati (Bu tamoyil debatning o'ziga bo'lib, noto' g'ri argument keltirish va savollarga javob berishda mantiqan noto'g`ri yo`ldan ketishning oldini oladi).

O`zaro hurmatni saqlash (Debat ishtirokchilarining shaxsiga qasddan teskari aloqaga krishmaslik shart, o`zga o`quvchi tomonidan aytilgan nazariya yoki fikrga qarshi chiqayotgan bo'ls, uning obro`sini to' kish maqsadga muvofiq emas.) Debatda 2 ta jamao ishtirok etadi. 1-jamao: Tasdiqlovchi tomon sifatida. 2-jamao: Qarama-qarshi yoki inkor etuvchi tomon sifatida. Bu metodlarni 2-sinflari uchun tarbiya darslarida qo'llash mumkin. O`quvchini kreativ fikrlashi, o'z mustaqil fikriga ega bo' lishga vordam beradi. Nimaga ? deganda o'quvchilar bilan jamoalar o`rtasida (O`zaro bahs munozara orqali o`quvchilar bir birlari bilan fikrlar almashadi.

### 3-4-sinf o'quvchilarida tarbiya qonuniyatlari va tamoyillarini o'qitish usullari

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maxsus ishlangan o'quv dasturi ularning yoshi va o'ylash qobiliyati va aqliy mahoratiga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'ladi. Bola yuqori sinflarga o'tish davomida o'quv dasturlari ham qiyinlashib boradi. Bu degani 3-4-sinflarda mavzular sodda tilda, o'yin metodlari bilan qiziqarli va oddiygina o'tilgan bo'lsa, endilikda ancha murakkablashadi va o'quvchilar oladigan ma'lumotlar hajmi ham kattalashadi. Ayniqsa, bolaarning ulg'ayishi jarayonida atrofdagi ko'plab omillar ularning tarbiyasiga ta'sir etadi. Ma'lumki, tarbiya shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon: insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash ko'rildigan chora tadbirlar yig`indisi bo'lib, makteblarda maxsus qaror orqali bu fanning o'tilishio`quvchilar onggu shuurida vatanga muhabbat, ota-onalarni e'zozlash, katta insonlarga hurmat, umuman olgan ularning salohiyatli va madanivatli inson bo'lib ulg'ayishlarida muhim ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, aslida tarbiyaning boshi aslida avvalo oiladan boshlanadi keyin esa ilm ziyo maskanidir. Bu manzildan bolalar ma'rifatparvar shaxs bo'lib chiqishi zarur.

Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Aslida tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyatni ham mavjud bo'la olmavdi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiva tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. 3-4-sinf o'quvchilarining tarbiya fanidan saboq olishlari juda muhim ahamiyatiga ega. Ayniqsa, tarbiya darslarining metodikalarini tashkil etishda axborot kommunikatsion texnologiyalarni va vositalari DAN foydalanish kerak. Insoniyatning ko'payishi tabiat qonuni bo'lgani kabi bola dunyoga kelgan kundan boshlab ota-onaning bola tarbiyasi uchun javobgarligi ham jamiyatimizning qonunidir. Azaldan

bola tarbivasi bilan yoshligidan, asosan, ona shug'ullangan, otaning asosiy vazifasi oilani boqish bo'lib. uyda bo'lgan vaqtida bolani nazorat qilib borishdan iborat edi. Bugungi oilaviy tarbiya, "Milliy va zamonaviy o'zbek bolasining siymosi qanday bo'lishi kerak?)" degan savolga javob talab qilmoqda. Bugungi bola o'tgan asr bolasidan keskin farq qiladi, o'zbek o'g'il-qizlari zamonaviy komil inson siymosiga ega bo'lmosi lozim. Tabiiyki, bu jarayonda oilaviy tarbiyaning o'rni beqiyos. Bola, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila o'z muhiti orqali bolaning dunyoqarashiga va xulqiga doimo o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Ibn Sino ta'biri, ota-onasida bola tarbiyasini unga ism qo'yishdek oliyjanob vazifadan boshlaydi. Bolaning jismonan sog'lom mehnatsevar, madaniyatli intellektual salohiyatlari bo'lib o'sishdan jamiyatimiz ham manfaatdordir. O'quv tarbiyaviy muassasalarining tarbiya borasidagi ishlari qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilishidan qat'iy nazar, tarbiya masalalarini oila hal qiladi. Bog'cha va maktablar ta'lim bersa va tarbivalasa- ota-onalar faqat tarbiyalabgina qolmay ular bilan birga yashaydilar ham. Ota -onalarning farzand uchun fidoyi bo'lisligi o'zbek millatiga xos bo'lgan ajoyib fazilatdir. Bunda siz o'zingizni juda ko'klarga ko'tarib

maqtab yuboring. Farzandingiz bilan iloji boricha bir kunda bir -bir yarim soat turli mavzularda suhbatlashib turish uning sizga bo'lgan mehr muhabbatini oshirishga qiyayotgan muammolari bilan o'rtoqlashishga yo'l ochadi. Siz sabrli bo'ling u sizdan nimadir yashirayotganini sezangiz uni nima ekanligini talab qilib aytib berishga majburlamang. Bu o'rinda sizning yoshligingizda kechgan qiziq voqealarни aytib berish o'qigan kitoblarizdagi qiziq voqealar haqida qisman so`zlab berish orqali uning sirlarini bilib olish mumkin.

Bilamizki bolaclar 3-4 sinf bo'lishgan paytda ancha rivojlangan va tarbiyalanishda ham taqlid qilishga moyillik bo`ladi. Bu paytda tog`ri dars o'tish metodikasi bilan bolaarnitarbiya qilishda bu fan muhimdir. Tarbiva jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbivachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga hamkorlik jaravonidir. Tarbiva jarayonida ongi shakllana boradi. his-tuyg`ular rivojlanadi. ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarini tashkll etuvchiga xizmat qiladigan xulqi odatlar hosil bo`ladi.

Tarbiya jaravonida bolaarning havoti vafaoliyatini pedagogik jihatdan to`g'ri uyuştirish g'ovat muhimdir. Faoliyat jaravonida bola tashqaridan kelavotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo`ladi. Bu munosabat shaxsnlqg ichki ehtiyojlar va xohishlarini ifodalavdi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning xoh salbiy. xoh ijobiy ta'siri bo`lganini ularga munosabatiga bog'likligini ko`rsatadi. Bola faolivatlni uvushtirishgina emas balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qandav anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilish zarur. Zero, tarbiva ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishl asosida kechadi. Tarbiva jarayonida

o'quvchining ongina emas balkl his-tuyg`ularini ham o'stirib borishi unda jamivatning shaxsga qo`yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. Faolivat o'quvchilar jamoasi manfaati va iatagi asosida uyushtirilsa bu jarayonda bolaning tengdoshlari va o'zini o`zi anglash jarayoni o`ziga keladi. Bola xulqi xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo`lib qoladi. Tarbiyani samarali vo'lga qo`vish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi. tarbiya jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir.

